



ANTROPONYMS AS COMPONENTS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH LANGUAGE

Islomova Guzal Sattorovna

UzSWLU, Linguistics (English)

Master's student, Tashkent, Uzbekistan

***ABSTRACT** The article confirms antroponyms as common components of phraseological units in English language. The aim of the article is to study the etymology and semantics of phraseological units that consist of names, surnames and other antroponyms. In the article the phraseologisms that have mythologic, literary, religious and historical antroponyms as components especially related to the history and culture of the countries like USA, England, Australia and others are analysed.*

INGLIZ TILIDA ANTROPONIMLAR QATNASHGAN FRAZEOLGIK BIRLIKLAR

***ANNOTATSIYA** Maqolada antroponimlarni frazeologik birliklarning asosiy qismi hisoblanishini tasdiqlaydi. Ushbu maqolaning maqsadi ismlar, familiyalar kabi atoqli ot komponentli frazeologik birliklarning kelib chiqish hamda manoviy jihatdan tahlil qilishdir. Tadqiqot Angliya, AQSH, Avstraliya va boshqa ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning tarixiga aloqador bo'lgan afsonaviy, adabiy, diniy va mifologik nomlar kabi antroponimlardan iborat bo'lgan bir guruh frazeologik birliklarni ochib beradi.*

***Kalit so'zlar:** Antroponimlar, frazeologiya, frazeologik birliklar, ism, familiya, taxallus, laqab, ibora.*



KIRISH

Odatda ikki inson o'rtasida boradigan suhbat albatta bir-birlarining ismlari bilan murajaat qilishdan boshlanadi. Qadim davrlardan buyon insonlarga ism qo'yish va qo'yilgan ismlar yuqori ahamiyatga ega bo'lib kelgan. O'zaro muloqot va bir-birini tushunishda ismlar ancha muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli, atoqli otlar muloqot va shuningdek, chet tillarini o'rganish va tarjima nazariyasida yetakchi masalalardan biridir. O'z tilida murakkab semantik tuzilishga ega bo'lishi, etimologik va forma jihatidan betakror bo'lishi va tilning boshqa kategoriyalari, birliklari bilan ko'pgina bog'liqligi bo'lgani holda atoqli otlar til chegaralarini yengib o'tishga yordam ham bera olishadi.

Antroponimiya onomastikaning katta sohalaridan biri hisoblanadi. U insonlarning ismlari, etimologiyasi, va ma'nosini o'rganadi. Etimologik, tuzilish va semantik jihatdan, ismlar quyidagi kategoriyalarga bo'linadi: Ismlar – insonning shaxsini ifodalovchi, bir xil familiyali insonlar orasidan ajratib o'zligini bildirib turuvchi otlar. Familiya – insonning o'zi tegishli bo'lgan madaniyat, oilasi, jamiyat yo qabilasini bildiruvchi, ismining bir qismi.

Antroponimlar har qanday inson va odamlar guruhini nomlaydigan atoqli otlardir. Ular frazeologik birliklar qismlarini tashkil etgani bois alohida guruh sifatida shakllanishiga imkon yaratadi.

Frazeologiyaning o'rganish obyekti frazeologik birliklardir. Frazeologiya til o'rganish sohasi bo'lib, tarixiy taraqqiyoti va hoziridagi frazeologik birliklarni tadqiq qiladi. Ingliz tili frazeologiyasi o'z xalqining madaniyati, urf-odatlarini, tarixi, kelib chiqishi va hayot tarzini aks ettiradi. Turg'un birikmalar orasida bir yoki ikki qisimli antroponimlardan tarkib topgan frazeologizmlar ko'pgina.

Ushbu maqolaning tub mohiyati frazeologizmlar tizimini o'rganib, ularning juda turli ekanligi isboti bilan, muayyan turini olib chuqurroq tahlil qilib, ingliz madaniyati, urf-odatlarini va tarixini yaxshiroq anglash va tahlil qilishdan iboratdir. Ilmiy yangilik shunda bo'ladiki, antroponimli frazeologizmlar etimologik va semantik jihatdan guruhlariga ajratiladi.



MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqolaning maqsadi antroponimli frazeologizmlarni o'rganish va shuningdek, ularning kelib chiqishi va semantik ma'nolarining tarifini izohlashdir.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

1. Ingliz tilidagi antroponimlar va frazeologik birliklarni kuzatish
2. Antroponimdan iborat frazeologizmlarni ajratib olish
3. Etimologiyasi va semantik ma'nolarini inobatga olgan holda atoqli otlar, ism, familiyalardan tarkib topgan frazeologizmlarni tizimlashtirish

Ushbu izlanishning amaliy ahamiyati atoqli otlar va familiya, ismlardan tarkib topgan frazeologizmlar sistemasida yotadi, shuningdek, ularning etimologik kelib chiqishi hamda semantik ma'nolariga asoslangan holda ingliz tilida yozma va og'zaki nutqda ishlatish imkonini beradi. Atoqli ot komponentli frazeologizmlar etimologiyasi va semantik ma'nosi ism, familiyalar etimologiyasi va semantikasiga asoslanadi.

Antroponimlardan iborat frazeologik iboralarni tahlil qilishda bir qator guruhlar aniqlanadi. Bu borada avvalo, Bibliyada keltirilgan atoqli otlar yetakchilik qiladi. Arslar davomida Bibliya Angliyadagi eng ko'p mutolaa qilingan va murojaat qilingan kitob hisoblanadi. Nafaqat iboralarning qismlari, balki butun boshli to'liq iboralar ingliz tiliga Bibliya sahifalaridan ko'chib o'tgan. Bibliyaning birinchi nashri 1539-yilda Angliya qiroli Genrix VIII farmoniga ko'ra vujudga kelgan. Ismli frazeologik iboralarning kelib chiqishi quyidagilarga borib taqaladi:

Adam's ale/wine – (-suv, hazil ibora) Oллоh yaratgan ilk inson, Jannat bog'ida faqat suv ichgan inson;

Balaam's ass – (doimiy bo'ysunuvchi bo'lib, jim yurgan va birdan qarshilik ko'rsatib ovozini balandlatgan inson) Bibliyadagi hikoyaga ko'ra, munajjim



Balamning eshagi farishtani ko'rishi bilan unga gapirib yuboradi.

Yana bir antroponimli frazeologizmlar guruhi qadimiy yunon-rim afsonalaridan olinga birikmalarga borib taqaladi chunki ushbu xalqlar madaniyati ingliz madaniyatiga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Masalan a Herculean labor (ulkan mashaqqatlar bilan amalga oshirilgan qahramonona jasorat) Gerkules qadimgi rim afsonalaridagi qahramon.

A banquet of Lucullus – (Lucullus bazmi, mo'l-ko'lchilik serob bo'lgan donishmandlik ham ko'p bo'lgan stol) Lucullus rim harbiyi bo'lib, uning bazmlari o'zining o'zgacha hashamati, mo'l-ko'lligi bilan mashhur bo'lgan.

Xalq namoyondalari, afsonalar, qo'shiqlardagi atoqli ismlar qatnashgan frazeologizmlar Britaniyalik odamlar milliy xarakterining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi:

A peeping Tom – o'ta qiziquvchan odam, afsonaga ko'ra, XI asrda Britaniyalik yirik magnat Mersiya grafi bo'lgan turmush o'rtog'i joriy qilgan og'ir soliqdan Koventri xalqini saqlab qolish maqsadida Godiva xonim yalang'och holatda ot minib shahr ko'chalarini aylanadi. Godiva xonimning hurmati uchun shahar aholisi unga qaramaslik uchun derazalarini yopib olishadi. Faqatgina tikuvchi Tom uning orqasidan mo'ralab qaraydi va shuning uchun ko'r bo'lib qoladi.

A Beau Brummel – ko'rkam, olifta, bashang; Beau fransuzchadan ko'rkam, chiroyli degan ma'noni anglatadi, Brummel esa ism. Bu frazeologizm XIX asrda Buyuk Britaniyalik moda yaratuvchisi erkaklar uchun rasmiy kiyinish uslubi hisoblanuvchi kostyum shim bilan galstukni ham asoschisi Jorj Brayn Brummel tomonidan joriy qilingan.

Mother Bunch – folbin. Bunch XVI asrda Angliyada yashagan folbinning familiyasi. Davrining yozuvchilari kulgu qilib, u ayolni pivo sotganligi va o'zining qo'pol hazillari bilan nom chiqargan deb tilga olishgan. XVII asr xalq rivoyat va afsonalarida u sehr va unga oid duolarni biluvchi qishloqlik qari donishmand ayol sifatida gavdalanadi.



Nutqlarda tez-tez uchrab turuvchi oddiy ingliz xalqining ismlari ham ko'pgina ingliz frazeologizmlarining tarkibiy qismi sifatida ishlatiladi. Masalan, oddiygina xalq odami, dengizchi Jek qonunga bo'ysunmas fuqaroni ifodalaydi, Tom ismi esa oddiy qashshoq insonni. Quyida misollar:

Jack Frost (Santa Claus - qorbobo) – frost so'zi o'z ma'nosida sovuq izg'irin ma'nosida bo'lgani holda, qishda derazalarga muzli naqsh chiziluvchi, izg'irin va sovuq uchun mas'ul bo'lgan ajoyib qahramon;

Jack in office – (takabbur rasmiy xodim, byurokrat) ofis boshqarma bo'lgan joy;

Union Jack – (Shimoliy Irlandiya va Birlashgan Qirollik shtat bayrog'i) Bu nom 1604 yilda dengiz etiketi bilan aloqador kishi ismi Jek dan kelib chiqqan.

John Doe and Richard Roe – XIX asrda Angliyada axloq-qoidalari istilosi sud jarayonida sud totishuvidagi himoychi va da'vogar to'qima obraz. Bu frazeologik birikmada Richard ism, Doe va Roe anonim, noma'lum manisini ifodalovchi familiya.

John Q. Public – (omma, oddiy xalq, o'rtahol Amerikalik odam) jamiyatdagi oddiy odamni aks ettiradi. Q familiya, Public esa xalq, jamiyat. Qonun saqlovchi ofitserlar tomonidan qonunga bo'ysunmas fuqarolarga nisbatan ishlatilgan.

Tom fool – (ahmoq inson) ahmoq o'z nomi bilan ahmoq.

Tom o'Bedlam – (tentak) Bedlamlik Tom, Bedlam so'zi Falastindagi bir shahar nomi "Bethlaham" dan kelib chiqqan. 1547-yilda Londondagi ruhiy kasalliklar kasalxonasi Bedlamlik St. Meri Kasalxonasi deb nomlangan. Rasmiy nomi Bedlam Qirollik Kasalxonasi.

Tom Tailor – (tikuvchi) tikuvchi o'z nomi bilan bichuvchidir, erkaklar kiyimlari savdosi bilan shug'ullanadigan.

Antroponimli frazeologik birikmalar orasida ikkita ism "va" bog'lovchisi yordamida bog'langanlari bor. Bu kabi frazeologik birliklarda qismlari semantik ma'no jihatidan bir-biriga aloqador bo'ladi, yagona tushunchani ifodalaydi.



Quyida shularga misollar:

David and Jonathan – (ajralmas do'stlar) Bibliyaga ko'ra ular sodiq do'stlar bo'lishgan va ularning munosabatlari to'kis do'stlikning namunasi sifatida saqlanib qolgan.

Dr. Jekyll and Mr. Hyde – (ham ezgu ham yovuz xislatlari bor inson) Jekyll va Hyde familiyalar, Dr. – shifokor, Mr – janob, ismlar oldidan ishlatiladi. Bu frazeologizm Robert Luis Stivenzonning 1886-yilda yozilgan “The Strange Story of Dr. Jekyll and Mr. Hyde” nomli hikoyasidan kelib chiqqan bo'lib, ko'ngli ochiq shifokor Jekyll yovuz Haydga aylanadi.

Jack and Gill – (bir-biriga oshiq qiz va yigit). Bu frazeologik birikmaning ildizi 18-asr ingliz bolalar qo'shiqlariga borib taqaladi, birinchi marta 1760-yilda “Ona o'rdak hikoyalari” to'plamida bolalar adabiyoti nashriyotida chop etilgan.

Punch and Judy – (ko'cha qo'g'irchoq teatri bosh qahramonlari) bu frazeologizm “ko'cha qo'g'irchoq teatri” ma'nosini anglatadi. XIX asr Buyuk Britaniyada qirolicha Viktoriya davrida mashhur bo'lgan.

Ba'zi bir antroponimli frazeologik birikmalar vaqt o'tgani sayin yo'qolib boradi va atoqli ismlar narsa nomlariga aylana boradi, kichik harflarda yoziladi. Masalan, Charlie – charlie, o'zi asl ma'nosi “dushman askari” bo'lgan. Hattoki Stiven ismi stiven (og'zaki) – muvaffaqiyat va mag'lubiyatning teng imkoni. Xullas, ism, familiya kabi antroponimlardan tashkil topgan frazeologizmlar haqida ularning etimologiya va semantikasini o'rganib xulosa qilishimiz mumkinki, frazeologik birliklarning turliligi kelib chiqishdagi va ma'nodagi xilma-xillikka asoslanadi. Ingliz tilida ismlar, atoqli otlardan tarkib topgan frazeologik birliklar xalqning madaniyati, tarixi va urf-odatlarini ifodalab ingliz tilini yanada boyitib, ta'sir doirasini kengaytiradi.

XULOSA

Bir qator frazeologik birliklar maqolada antroponimli frazeologizmlar shu bilan bir qatorda, Bibliyada keltirilgan ismlar, qadimiy afsona va xalq rivoyatlardagi atoqli otlar tizimlashtirish imkonini berdi. Amerika Qo'shma



Shtatlari va Avstraliyada vujudga kelgan odamlarning urf-odat an'analari bilan bog'liq bo'lgan antroponimli ya'ni, ism, familiyalardan iborat frazeologizmlar ingliz tiliga turli boshqa davlat tillaridan, mashhur to'qima asarlar va ko'cha iboralaridan kirib kelgan. Ta'kidlash lozimki, ikkita atoqli otlar "va" bog'lovchisi bilan bog'langan frazeologizmlar ham bor. Kelib chiqishi va etimologiyasi yo'q bo'lib ketgan alohida bir frazeologizmlar guruhi ham bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2007. Т. 9. Динамика атмосферы – Железнодорожный узел. 767 с.
2. Большая советская энциклопедия: в 30-ти т. / гл. ред. А. М.
3. Прохоров. Изд-е 3-е. М.: Советская энциклопедия, Т. 27. Ульяновск – Франкфорт. 624 с.
4. Кунин А. В. Англо-русский фразеологический словарь. Изд-е 4-е, перераб. и доп. М.: Русский язык, 1984. 944 с.
5. Кунин А. В. Большой англо-русский фразеологический словарь. Изд-е 5-е, перераб. М.: Русский язык – Медиа, 2006. 1210 с.
6. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Изд-е 3-е, стереотип. Дубна: Феникс+, 2005. 488 с.
7. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. М.: Международные отношения, 1972. 289 с.
8. Серов В. В. Энциклопедический словарь крылатых слов и выражений. М.: Локид-Пресс, 2005. 852 с.
9. Смит Л. П. Фразеология английского языка. М.: Государственное учебно-педагогическое издательство Министерства просвещения РСФСР, 1959. 207 с.
10. Шитова Л. Ф. Proper Name Idioms and Their Origins / Словарь именных идиом. СПб.: Антология, 2013. 192 с.
11. Ayto J. Oxford Dictionary of English Idioms. Oxford: Oxford University Press, 2010. 416 p.



12.Gulland D. M., Hinds-Howell D. G. The Penguin Dictionary of English Idioms. 2nd ed. L.: Penguin Books, 2001. 400 p.

13. Longman Idioms Dictionary / ed. by K. Stern. L.: Longman, 1998. 398 p.

14.Spears R. A. American Idioms Dictionary. 4th ed. N. Y.: McGraw-Hill's, 2007. 744 p.